

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV FAOLIYATI TAHLILI

X.B.Tuxtaxo'jayev – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor*

Farg'ona davlat universiteti

Tayanch so'zlar: o'quv faoliyati, pedagogika universiteti, motivatsiya, o'quv jarayoni, kasbiy tayyorgarlik, faol o'qitish usullari.

Ключевые слова: образовательная деятельность, педагогический вуз, мотивация, образовательный процесс, профессиональная подготовка, активные методы обучения.

Key words: educational activity, pedagogical university, motivation, educational process, professional training, active teaching methods.

Kirish. Inson faoliyatini murakkab biologik tizim sifatida boshqaruv o'z-o'zini tashkillashtirish masalalarini hal etishni ko'zlaydi [1], boshqaruv samaradorligi va ko'rsatkichlarining namoyon bo'lishiga bog'liq. O'quv faoliyatida bunday ko'rsatkichlarga talabalar o'quv faoliyati tizimini aniqlovchi omillarni qo'shish mumkin. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, bu turli omillar bevosita o'quv faoliyatini (mashg'ulotlarga qatnashuv, o'quv yuklamalari hajmi va boshqalar) aniqlovchi va unga bilvosita ta'sir etuvchi (kun tartibi, mustaqil tayyorgarlik, turli qiziqishlar va shu kabi) omillar bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O'quv bo'limining hujjatlari o'rganish tahliliga ko'ra (1-jadval), auditor yuklamalar (ma'ruza, seminar mashg'ulotlari) o'quv yili davomida I-II bosqichlarda haftasiga 30-36 soatni tashkil qiladi, modomiki, IV bosqichlarda uning kamayishi kuzatiladi. Bunday holat o'quv fanlari sonida ham aniqlangan.

1-jadval. I-IV bosqich talabalari uchun o'quv yuklamalari

T/r	Bosqichlar	Fanlar soni	Semestrda soatlar	1 haftada soatlar
1	I	1-semestr	9	1022
		2-semestr	9	1014
2	II	3-semestr	10	1078
		4-semestr	9	1002
3	III	5-semestr	9	976
		6-semestr	12	1142
4	IV	7-semestr	10	1026
		8-semestr	4	264

2-bosqichda auditoriya yuklamasini fiziologik baholash uchun kundalik energiyasi aniqlandi. Tadqiqotda Andijon davlat universitetining birinchi bosqich talabalari ishtirok etdi, kundalik energiya sarfini aniqlash uchun vaqt jadvalidan foydalandi.

Talabalarga kunduzgi vaqtini bajarish va turli tadbirlarni o'tkazish vaqtini belgilash uchun ish jadvalini tayyorlashni so'radik.

Energiya sarflash xarajatlari talaba mehnat zichligi jihatdan birinchi guruhga va kundalik energiya ehtiyoji 2400 kkallga teng bo'lgan "Aholining turli guruhlar uchun oziq-ovqat moddalari va energiya uchun fiziologik ehtiyoj normalari" asosida joriy qilingan.

Adabiyotlarga ko'ra kundalik energiya sarf-xarajatlari oziq-ovqatni iste'mol qilish bilan bog'liq, energiya, nerv-mushak faoliyatiga bog'liq (aniqsa, oziq-ovqatning dinamik ta'siri) [2].

Xronokartalarning tahlili pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'qish jarayonidagi salbiy holatlarni aniqlashga imkon berdi. Aksariyat talabalarda kun tartibini

oddiy hollarda buzish, tinch uyquning yo'qligi, ovqatlanish tartibining buzilishi, harakat faolligining yetarli emasligi qayd etilgan.

Shunday qilib, o'quv faoliyati tahlili uning quvvat ahamiyati guvohlik beradiki, talabalar hayotida jismoniy madaniyatning rolini kuchaytirish, talabalar harakat faolligi taqchilligi o'rnini to'ldirish masalalarini muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlash zarurdir.

Adabiy manbaalarni nazariy jihatdan tahlil qilish natijasida pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini jismonan tarbiyalash mohiyatiga, jismoniy madaniyat mashg'ulotlarida qo'llaniladigan vosita va uslublarga, shuningdek, sog'lomlashtirishning bir qator alohida masalalariga, jismoniy madaniyat sport faoliyatiga tegishli materiallar o'rganilgan.

Talabalarni jismoniy madaniyat bo'yicha mashg'ulotlarni individuallashtirish, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari yoritilgan ishlar chuqurroq tahlil qilindi [3].

So'rovnoma (anketa) o'tkazilganda o'quv faoliyati ko'rsatkichlari, vaqt taqsimotini, shuningdek, talabalarining jismoniy madaniyat sport faoliyati va ularning HF tadqiq qilish uchun qo'llanilgan. Shu maqsadda 3 anketa ishlab chiqilgan (2,3,4-ilovalar). Birinchi ilova talabalarining bo'sh vaqtidagi qiziqishlari shakllariga tegishli masalalarni o'z ichiga olgan. Ikkinchisi talabalarining jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlariga undovchi mavzularni, uchinchisi esa HF ko'rsatkichlarini talabalarining vaqti taqsimotidagi jismoniy madaniyatning o'rnini. Anketa savollariga javob berishda hammasi bo'lib AndDU jismoniy madaniyat fakultetining 414 nafar talabasi ishtirok etdi. Anketa AndDUning jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasini bilan hamkorlikda tuzilgan.

Keyingi bosqichda bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi (STT) motivatsiyasining shakllanganlik darajasini aniqlash (5-ilova), talabalarining STTni tashkil qilishlarida ko'zda tutilgan maqsadlarini aniqlash (6-ilova), talabalar salomatlik madaniyatini o'rganish (7-ilova). Hammasi bo'lib 1030 ta anketa analiz qilindi.

Tibbiy pedagogik kuzatishlarda talabalar salomatligi holatini kompleks nazorat qilishning ajralmas qismi bo'lgan tibbiy-pedagogik kuzatishlar quyidagi maqsadlarda amalga oshirilgan.

- mashg'ulotlarning organizmga ta'sirini o'rganish;
- talabalarining salomatligi va tayyorgarligi darajasini aniqlash;
- jismoniy madaniyat mashg'ulotlarini individuallashtirishga talabalarining munosabatlarini yo'lga qo'yish.
- o'qituvchining valeologik kompetentligini o'rganish.

Tibbiy pedagogik kuzatishlar yurak qisqarish soni (YuQS) bo'yicha amalga oshirildi. Bu YuQS mashg'ulotlardagi jismoniy yuklamalarni bajarish jarayonida hosil bo'luvchi organizm holatining va uning o'zgarishi bilan uzviy bog'liq integral ko'rsatkich hisoblanadi. Bundan tashqari, tadqiqotlarda arterial qon bosimi va nafas maromi o'lgan YuQSni hisobga olish.

Organizmning funksional imkoniyatlari va asosiy jismoniy sifatlar bo'yicha test oliy ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat bo'yicha o'quv dasturiga asosan o'quv yilining boshida va oxirda 6 ta asosiy test bo'yicha o'tkazildi. Bular 100 metrga yugurish (tezlik imkoniyatlarini baholash); 3000 metrga yugurish (chidamlilikni baholash); bir joydan turib uzunlikka sakrash (tezlik-kuch tayyorgarligi); turnikda tortilish (qo'l kuchini rivojlantirish); bir oyoqda o'tirib turish, tayangan xolda (oyoq kuchini rivojlantirish); oyoqlar juft xolda, qo'lni bosh orqasiga olgan holatda tanani ko'tarib tushirish (qorin pressi muskullari kuchini baholash). Shuningdek, organizmning aerob imkoniyatlarini baholash uchun Kuper testi o'tkazildi (3000 metr masofaga 12 daqiqali yugurish).

Qo'l harakat kuchini aniqlash uchun yotgan holatda qo'llarni yozib yig'ish testi qo'llanildi. Bajariqlan testlarni baholashlarning o'quv dasturi va uslubidan olingan metodika bo'yicha barcha testlardan (7-ilova) to'plangan baholarning o'rtachasi bilan aniqlandi.

Jismoniy rivojlanish bo'yicha test funksional o'zgarishi, O'TS, panja harakatchanligi, umurtqa egiluvchanligi, nafas olib tutib turish (Shtange sinovi), nafasni chiqarib tutib turish (Genche sinovi), muskullarning holati, yurak qon tomir tizimi (Martine tajribasi)ni o'z ichiga oladi.

Natijalarini saralash davomida ishning daqiqalar bo'yicha mahsuldorligi va butunicha hisoblab chiqiladi. Bunda ko'rib chiqilgan harflar miqdori (S), to'g'ri o'chirilgan harflar soni (I), xatolar miqdori (O) hisoblab chiqiladi.

(Musahhih (korrektor)ning mashg'ulotchanlik tajribasi) ta'siri katta emas. Bu uslubni ko'p martalab qo'llash mumkin.

G.Apanasenko uslubi bo'yicha salomatlik darajasini ekspress baholash.

Talabalar salomatligi darajasini nazorat qilish jismoniy madaniyatning asosiy omili hisoblanadi [4,5,6,7].

G.Apanasenko uslubi salomatlik darajasini ekspress baholash uchun qo'llanilgan. Bu uslubga ko'ra salomatlik darajalari (Grodualno) besh toifaga ajratilgan (2-jadval). Har bir ko'rsatkichda jamlangan (5 balli shkalada) mos ballar hisoblangan. Salomatlik darajasini baholash ham darajalar (past o'rtacha yuqori), ham balli tizimda o'tkazilgan. Ballar miqdoriga ko'ra talabani kuchsiz tomonlari haqida xulosa chiqarilgan va jismoniy holatni tiklash uchun individual dasturlar tuzilgan [8].

2-jadval. Talabalar salomatligi darajasini baholash

T/ r	Testlar	Salomatlik darajasi				
		Past	O'rtacha dan past	O'rtacha	O'rtacha dan yuqori	Baland
1	Tana uzunligi kg/sm	Ball	>451-2	450-350-1	350-0	—
2	O'TS, ml/kg	Ball	<40-0	41-45-1	46-50-2	51-56-3
3	YuQS 100da	Ball	>-2	110-95-0	94-85-2	84-70-3
4	30 soniyada 20 marta o'tirib turgandan keyin tiklanish vaqti (daq,soniya)	Ball	3dak-1	3-2 dak-2	1,59-1,30-3	1,29-1,05-4
5	Sog'liq darajasini umumiy baholanishi (ballar bo'yicha)	Ball	4	5-9	10-13	14-16
						17-21

Pedagogik tajriba 2015-2017 yillarda AndDU, FarDU, JDPI, TDPUDA o'tkazilgan. Tajribada umumiy qabul qilingan tamoyillar "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" kafedralari tomonidan tashkil qilingan va o'tkazilgan ("valeologiya asoslari" fanini tatbiq etish bazasida). AndDU, FarDU, JDPI, TDPUDA 1,2,3,4 bosqich 1030 ta talaba ishtirok etdi.

Tibbiy ko'rik natijasiga ko'ra talabalar salomatligida nuqsonlar uchratilmagan, ularning barchasi jismoniy madaniyat mashg'ulotlariga qo'yilgan taxminiy raqamlarni tanlash uslubi bilan tajriba boshida uncha katta farqga ega bo'lmagan ($R>0.05$) 2 guruh tuzilgan (nazorat va tajriba guruhlari). Ikala guruhida ham jismoniy madaniyat mashg'ulotlarining aksariyat qismi aylanma mashg'ulot uslubi bo'yicha o'tkazilgan. Farq faqatgina tajriba guruhidagi talabalarning maxsus kartasini o'z ichiga olgan dasturni ko'llash, yurak urish maromi monitori yordamida jismoniy yuklamalarni maqbullashtirishda bo'lgan.

Pedagogik tajriba ishlarining samaradorligi talabalarni test sinovidan o'tkazishning natijalari va idrok testlari ko'rsatkichlari bo'yicha baholangan.

Ma'lumotlar tekshiruvi va tahlilining matematik-statistik uslublari.

Tadqiqotlar natijalari ma'lumotlari matematik-statistik tekshiruvdan o'tkazildi, bu tekshiruv tadqiqotning har bir bosqichida o'tkazilgan.

Olingan ma'lumotlarning ishonchliligi kichik tanlovlar uchun belgilangan uslublar bo'yicha baholangan. Guruhlardagi tafovutning ishonchliligi talaba mezoni bo'yicha 5% li darajada va Van-der-Verden mezoni bo'yicha aniqlangan.

Matematik tekshiruv jarayonida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblab chiqilgan: X - o'rtacha arifmetik miqdor - bir turdagi ko'rsatkichlar qatorining miqdoriy sifatlarini umumlashtiruvchi hosila hisoblanadi:

S-disspersiya belgilar qiymatining o'rtacha arifmetik qiymatdan farqining o'rtacha kvadrati;

Sya-o'rtacha arifmetik qiymatning standart xatosi.

R va t biologik tadqiqotlardagi farqlarning ishonchliligi ko'rsatkichlari (ishonchlilik 5%li darajada hisobga olingan $r > 0,05$).

Natijalar va muhokama. Ushbu qo'yilgan vazifalarni hal qilishda Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida tajriba sinov ishlarini borishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Oldinga qo'yilgan masalalarni hal etish uchun jami bo'lib 1030 talaba qatnashdi, shundan, AndDUdan 414 nafar, FarDUdan 210 nafar, TDPUDan 206 nafar va JDPIDan 200 nafar talabalardan anketa so'rovnomasi o'tkazildi. So'rovnoma orqali pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi jismoniy madaniyat mashg'ulotlarini individuallashtirishni tadqiq qilindi, jismoniy madaniyatning an'anaviy tizimi tajribasi umumlashtirildi. Bundan tashqari, talabalar (STT) test sinovidan o'tkazildilar.

Tadqiqotlar natijasida pedagogika oliy ta'lim muassasalari jismoniy madaniyat mashg'ulotlarida individuallashtirish tamoyilini tatbiq etish uchun dastur ishlab chiqildi.

Pedagogik tajribaning davomiyligi 17 haftadan 2 semestr bo'lgan. Tajriba boshi va oxirida test sinovi

o'tkazildi. Tajriba guruhlarida ham xuddi asosiy guruhdagidek mashg'ulotlarning asosiy qismi aylanma mashg'ulot uslubi bo'yicha o'tkazilgan. Asosiy farq shundan iborat bo'lganki, tajriba guruhida an'anaviy dasturdan tashqari talabalarning individual karta ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Mashg'ulotlarda pulsometriya ("Polar" texnologiyasi) yordamida yurak urish tezligini nazorati ostida jismoniy yuklamani maqbullashtirish ishlari o'tkazilgan va idrok testlarining individual ko'rsatkichlari hisobga olingan. Mashg'ulotlarda yurak urish tezligini o'lchovi apparati yordamida olingan tezkor ma'lumot yuklamaning individual moslashuvini amalga oshirishga imkon beradi.

Xulosa. Shunday qilib, individual psixofizik ko'rsatkichlarni baholash jismoniy yuklamani qayd etish uskunalarini qo'llash va uni mashg'ulotlar jarayonida operativ boshqarish individuallashtirish tamoyilini muvaffaqiyatli tatbiq etishni yaratadi va shug'ullanuvchilar tayyorgarligiga ijobiy ta'sir o'tkazadi, tadqiqotlar ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi. Asosiy jismoniy sifatlar bo'yicha olingan test natijalari tajriba boshidan guruhlararo keskin farqga ega bo'lmagan ($r < 0,05$). Pedagogik tajriba tugallanishi bilan xuddi nazorat guruhidagi kabi tajriba guruhida ham statistik jihatdan jismoniy sifatlarda-kuch (qorin pressi muskulida), chidam (3000 metrga yugurish) borasida anchayin farqlar aniqlandi ($r < 0,05$). Qo'l yelka kuchi, tezlik imkoniyatlari (100 metrga yugurish) borasida ham farqlar ko'lami TGda kengroq ($r < 0,05$).

Adabiyotlar

1. Лихачёв Б.Т. Педагогика. – Москва: Академия, 2005.
2. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: «Педагогика», 1989.
3. Курьёс В.Н. Педагогические технологии в физическом воспитании. – Минск: «Университетское», 2007.
4. Московченко О.Н. Индивидуализация учебных программ по физической культуре. // «Физическая культура в школе», 2017, №4.
5. Степанов В.С. Методические основы составления программ оздоровительной направленности. // «Теория и практика физической культуры», 2016, №9.
6. Ревенко Е.М. Педагогические условия реализации здоровьесберегающих технологий. // Вестник Томского государственного университета. 2021, №476.
7. Попова Н.В. Индивидуальный подход в оздоровительной физической культуре. // «Физическая культура: воспитание, образование, тренировка», 2018, №2.
8. Ильин Е.П. Психология физического воспитания. – Санкт-Петербург: «Питер», 2008.
9. Лопатина Т.П. Диагностика физических способностей школьников. // «Физическая культура в школе», 2020, №5.
10. Русаков Л.А. Использование цифровых технологий в физическом воспитании. // «Педагогика и психология», 2019, №6.

REZYUME. Maqolada pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarining ta'lim faoliyatiga ta'sir qiluvchi xususiyatlar va omillar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot muammolarni aniqlash va ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish yo'llarini belgilashga qaratilgan. Amaldagi usullar so'rovnomalar, kuzatish va ta'lim hujjatlarini tahlil qilish edi. Natijada, talabalarning o'quv faoliyatiga motivatsiya, o'quv jarayonini tashkil etish va o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar sezilarli darajada ta'sir qilishi aniqlandi. Oliy pedagogika maktabi sharoitida o'quv faoliyatini optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar taklif etiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются особенности и факторы, влияющие на образовательную деятельность студентов педагогических вузов. Целью исследования является выявление проблем и определение путей повышения эффективности образовательного процесса. В качестве методов исследования использовались анкетирование, наблюдение и анализ образовательных документов. В результате было выявлено, что на успеваемость студентов существенное влияние оказывают мотивация, организация учебного процесса и взаимодействие с преподавателями. Предлагаются рекомендации по оптимизации образовательной деятельности в условиях высшей педагогической школы.

SUMMARY. The article examines the characteristics and factors affecting the educational activity of students of pedagogical universities. The study is aimed at identifying problems and identifying ways to improve the effectiveness of the educational process. The methods used were questionnaires, observation and analysis of educational documents. As a result, it was found that students' educational activity is significantly affected by motivation, organization of the educational process and interaction with teachers. Recommendations are offered for optimizing educational activity in the conditions of a higher pedagogical school.